



## Training creativity sultanii based on pedagogical technologies (Based on Haft Shuaro)

Iroda KHADZHIEVA<sup>1</sup>

Urgench branch of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi

### ARTICLE INFO

#### Article history:

Received January 2021

Received in revised form

30 January 2022

Accepted 20 February 2022

Available online

15 March 2022

#### Keywords:

heritage,  
collection,  
value,  
poem,  
poet,  
ghazal,  
poetic art,  
pedagogical technology,  
method.

### ABSTRACT

This article discusses the Haft Shuaro complex, which is part of our national and spiritual heritage. The author reflects on the life of the Sultan and his creative heritage, which occupies a significant place in the complex. He also pays special attention to the analysis of the poet's work instead of innovative and pedagogical technologies. The article focuses on the use of poetic devices in the Sultan's ghazals instead of increasing the sentimentality of the work.

2181-1415/© 2022 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol3-iss2/S-pp266-272>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

## Sultoniy ijodiyotini pedagogik texnologiyalar asosida o'rgatish ("Haft shuaro" majmuasi asosida)

### ANNOTATSIYA

#### Kalit so'zlar:

meros,  
majmua,  
qadriyat,  
she'r, shoir,  
g'azal,  
she'riy san'at,  
pedagogik texnologiya,  
metod.

Ushbu maqolada milliy-ma'naviy merosimizning bir qismi hisoblangan "Haft shuaro" majmuasi to'g'risida fikr yuritiladi. Muallif majmuadan salmoqli o'rin olgan Sultoniy va uning hayot yo'li hamda ijodiy merosi xususida mulohaza yuritadi. Shuningdek, shoir asarlarini tahlil qilishda innovatsion va pedagogik texnologiyalarning o'rniga alohida ahamiyat beradi. Maqolada Sultoniy g'azallarida she'riy san'atlarning qo'llanishi asar ta'sirchanligini oshirishdagi o'rniga e'tibor qaratiladi.

<sup>1</sup> Associate Professor of the Urgench branch of the Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khwarizmi.

## Обучение творчество султаний на основе педагогических технологий (На основе произведения Хафт Шуаро)

### АННОТАЦИЯ

**Ключевые слова:**

наследие,  
комплекс,  
ценность,  
стихотворение,  
поэт,  
газель,  
поэтическое искусство,  
педагогическая  
технология,  
метод.

В данной статье рассматривается комплекс «Хафт шуаро», являющийся частью нашего национального и духовного наследия. Автор размышляет о жизни Султана и его творческом наследии, занимающем значительное место в комплексе. Также особое внимание он уделяет анализу творчества поэта вместо новаторских и педагогических технологий. В статье акцентируется внимание на использовании поэтических приемов в султанских газелях вместо повышения сентиментальности произведения.

Bugungi kunda yosh avlodni barkamol ruhda tarbiyalashda ma'naviy meros, qadriyatlar alohida ahamiyatga ega. Ma'lumki, har bir shaxs qalbida Vatanga muhabbat tuyg'usi ajdodlar tomonidan yaratilgan asarlarning qimmatini anglash asosida shakllanadi. Bu jihatdan umuminsoniy qadriyatlar bilan bir qatorda, milliy qadriyatlar ham dolzarbdir. Ta'lim muassasalarida tarixni, merosni, qadriyatlarni o'rgatish jarayonida pedagogik va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorlikka erishishda muhim omillardan hisoblanadi.

Adabiyot, ma'naviyat darslarida adiblar, shoirlar ijodini o'rgatish jarayonida ularning hayot yo'li to'g'risida ma'lumot berish ijodkor asarlarining mohiyatini tushunishga yordam beradi. Zero, ijodkor yashagan muhit uning ijodiga ta'sirini o'tkazishi tabiiy.

“Haft shuaro” majmuasidan o'rin olgan Sultoniy ijodidan ayrim namunalarni tahlil qilishda interfaol texnologiyalarga murojaat qilamiz. O'qituvchi va o'quvchi hamkorligi orqali mavzuni tahlil qilishda aqliy hujum shakllantirilsa, komil inson va uning shoir nuqtayi nazaridan tasvirlanishini teranroq anglashga imkon beradi [1]. Dastlab shoirning hayoti to'g'risida ma'lumot berish maqsadga muvofiq. O'z navbatida, “Haft shuaro” majmuasining shoirga ajratilgan qismida maxsus debocha bitilgan bo'lib, bu debochanning mazmuni tinglovchilarga tushuntirilsa, shoirga nisbatan saroydagi munosabatni anglatish mumkin. Ya'ni mavzuni tushuntirish jarayonida aralash texnologiyadan foydalansak, mavzuni batafsil yoritishga erishamiz [2].

O'z asarlari bilan majmuadan eng salmoqli o'rin egallagan shoir Sultoniydir (1889–1944). Feruzning sevimli nabirasi bo'lgan Said Nosir to'raga bu taxallusni bobosi bergan. Bayoniydan ta'lim olgan Sultoniy turli janrlarda ijod qilgan. Majmuadagi Bayoniyning so'zboshisida unga shunday ta'rif beriladi: “Kim ushbu shahzodayi mushorun ilayh chun podshohi oliyjoh atoullohu taolo umruhu va davlatuhu nabiralari jumlaridind erdilar. Soyai inoyatlarida ta'lim va tarbiyatlar birla sarafroz bo'lib, ham ul turluk fazlu hunarlar birlakim, oning birlan el oralarida mashhurdirlar, shuhrai ofoq bo'ldilar. Ash'orlari el oralarida mutafarriq bo'lib, har kimga taajjub yuzidan oning tamoshosiga shavq paydo bo'lur va har ko'ngulga oning ma'nolari andishasida va inbisot yuzlanur erdi” [3].

Shoir to'g'risida Bayoniyning “Shajarai Xorazmshohiy”, Tabibiyning “Majmuatushshuaro”, Laffasiyning “Tazkirai-shuaro”, Bobojon Tarroh xodimning “Xorazm navozandalari” asarlari orqali ma'lumotga ega bo'lamiz. Shuningdek, Feruzning topshirig'i bilan Bayoniy tomonidan tuzilgan “Haft shuaro” majmuasining so'z boshi qismida Sultoniy to'g'risida ma'lumot berilgan.

Laffasiyning “Tazkirai shuaro” asarida ma’lumot berilishicha, shoirning asl ismi Said Nosir to’ra bo’lib, Sultoniy uning taxallusidir. Sultoniyning xon avlodidan bo’lganini Tabibiy ham qayd qiladi.

***Said Nosir ul to’rai pokzot,  
Ki oson ango so’zda har mushkilot.  
Nasabda shaxanshohning oxtuqi  
Hamma fazl ahlin vozilu ortuqi.***

Sultoniy 1887(hijriy 1305)-yilda ortuqi (113-b) maktabni bitirgan, lekin madrasa tahsilini olmagan. Bayoniyga shogird bo’lib she’riyatni o’rgangan.

Maktablardan ma’lum bo’lishicha, Sultoniy Feruzning sevimli nabiralaridan biri bo’lganligi bois uning she’rlarini Feruzning o’zi tahlil qilib, yo’l-yo’riq ko’rsatib turgan.

Sultoniy Feruz vafotidan so’ng Isfandiyorxondan hurmat-e’tibor ko’rmaydi. 1920-yilda Sultoniy Moskva tomonga surgun qilinadi.

Sultoniydan bizga katta adabiy meros qolgan. Uning o’zi bir devon tartib bergan bo’lib, bir toshbosma hamda 3 ta qo’lyozma nusxalari va “Bayozi Sultoniy” O’zFASHI ning qo’lyozmalari ko’plab bayozlar, Tabibiy tazkirasini va Bayoniy tomonidantuzilgan “Haft shuaro” majmuasiga kiritilgan.

Shoir ijodiy merosi nashr qilinmagan. Biroq uning asarlari adabiyotshunoslar nazarini jalb qila olgan.

Shoir hayoti to’g’risidagi umumiy ma’lumotlar berilgach, tinglovchilarni kichik guruhlariga bo’lib, Sobiq Ittifoq davrida o’zbek shoirlarga munosabatni aqliy hujum metodi orqali mulohaza yuritilsa, tinglovchilarning kreativ fikrlashi uchun qulaylik tug’diradi [4].

Akademik V. Abdullayevning 80-yillardagi tadqiqotlarida shahzoda shoirlarning Navoiyga izdoshligi masalasiga doir fikrlar mavjud. Jumladan, adabiyotshunos “Navoiy va bir davrning ikki shoiri” maqolasida Farrux va Bayoniyning Navoiy an’analariga munosabatiga to’xtalar ekan, Bayoniy dunyoqarashidagi nuqtayi nazar va g’oyaviy saviya ko’lamini alohida ta’kidlab, uni “bedorlik, hushyorlik, ma’nidorlik shoiri”, Navoiyning chinakam izdoshi sifatida ta’riflaydi [5]. “Navoiyga ijodiy izdoshlik mezonini haqida” sarlavhali maqolasida esa Sultoniyning ayrim tatabbu’ g’azallari va taxmislarini tahlil etib, unga “xalq hayoti, orzu-havasi bilan aloqador bo’lgan, Navoiydagi masalalarni chetlab o’tgan va Navoiydagi dunyoviylik mezonini buzib, ilohiylikni bo’rttirgan” shoir sifatida ijodiga salbiy baho beradi [6].

V. Abdullayev Sultoniy Navoiyga ijodiy izdoshlik mezonini buzgan, Navoiy g’azallaridagi ishqni o’zidagi hayvoniylik xirs-u nafsiga o’rab tasvirlangan, – deb Sultoniyning mazkur baytini keltiradi:

***G’am emas Sultoniyga davron g’amdin do’stlar,  
Bu kecha ahdu karam ul maxitobong ayladi.***

Adabiyotshunos N.Qobulov esa o’zining “XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Xorazmda madaniy va adabiy hayot” maqolasida shahzoda shoirlar ijodiga munosabat bildirib, “feodal saroy adabiyotining eng muhim belgilari taqlidchilik, shaklbozlik, payravchilik, madhiyabozlik avj olishi bilan xarakterlanadi”, deb hukmron mafkuraga muvofiq tavsiflaydi va dalil sifatida Murodiy, Farrux, Sultoniy she’rlaridan ayrim parchalar keltiradi [7].

90-yillarning boshidan mustaqillik mafkurasi tufayli yangilangan ilmiy tafakkurda adabiy merosga xolis yondashuv namunalari Feruz shajarasi shoirlarining ijodini o'rganishda ham ko'rina boshladi. Bu sohada N. Jumaxo'ja, D. Rahim, Sh. Matrasul, I. Adizova, G. Ismoilovalarning risola va maqolalari alohida e'tiborga loyiqdir. Xususan, 1991–1995-yillarda Feruzga bag'ishlab chop etilgan ommabop ikki kitobdagi tarixiy-badiiy lavhalarda shahzoda shoirlarning hayoti va ijodi to'g'risida qimmatli ma'lumotlar bayon etilgan. Jumladan, birinchi kitobda Murodiy, Oqil, Sodiq, Sultoniy, Sa'diy tarjimayi holi va asarlariga doir muxtasar faktlar bor [8]. Ikkinchi kitobda yuqoridagi fikrlar davom ettirilib va boyitilib, shahzoda shoirlardan yetti nafarining ham badiiy merosi haqida fikr yuritiladi va ularning adabiy muhitdagi o'rni umumiy tarzda ta'kidlanib, quyidagi asosli xulosaga kelinadi: "Haft shuaro" majmuasi ham Xorazm adabiy muhitini o'rganishda muhim manbalardan biri, uni o'rganish va targ'ib qilishdan adabiyot foyda ko'rsa ko'radiki, aslo zarar ko'rmaydi. Shunday ekan, "Haft shuaro", "Tazkirai si shuaro" Feruzshohiy" kabi asarlarni nashr etish, ularni kitobxonlarga yetkazish bugunning talabi bo'lib qolmoqda" [9].

Adabiyotshunos G. Ismoilova bu fikrlarni quvvatlab, shunday yozadi: "Saroy maddohi", "taqlidchi", "ijodi payrav she'rlardangina iborat" deb talqin qilingan ko'pgina qalam ahlining she'rlarini sinchiklab kuzatsak, ularning zamona taqozosi bilan o'z ko'nglidagi nozik hislarni, qalbidagi alam-dardlarni nechog'lik ustalik bilan ifoda etganlariga guvoh bo'lamiz" [10-15].

Shuningdek, saroy muhitidagi shoirlar ijodining adabiy-estetik qimmatini va mumtoz she'riyatimizni boyitishdagi ulushi xususida boshqa qator tadqiqotlarda ham ahamiyatga molik fikrlar bayon etilgan [16-19].

Darhaqiqat, iste'dodli shoir Sultoniy she'riyati badiiy qimmatga egadir.

Sultoniy g'azallarini tahlil etishda interaktiv texnologiyalar [20] dan foydalanish tinglovchilarning g'azal mohiyatini tushunishlarida muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, ularda asar tahlili yuzasidan ko'nikma hosil bo'lishiga yordam beradi.

Shoir ijodining yetakchi g'oyasi ishq-muhabbatdir. Mansab va martaba tanlamaydigan, shoh-u gadoga teng bo'lgan ishq shoir tomonidan ulug'lanadi:

***Oydek yuzing anvoridan ravshan erur jumla jahon,  
Bu xusninggu diydoringga olam gado, man ham gado.***

Sultoniy o'z g'azallarida she'riy san'atlarni qo'llash bilan she'rning o'qimishli va ravon bo'lishiga erishadi.

Shoir g'azallarida tarixiy-afsonaviy obrazlar uchraydi. Bu obrazlar shoir tasvirlagan ishqning ta'sirchan bo'lishiga xizmat qiladi.

G'azallarining aksariyatida talmeh san'atiga duch kelamiz. "Kel, ey Laylivashim, lutf aylabon bazmim aro bir kun", "Mutribimdur bu kecha bir dilbari Uzro misol", "Ey zor, ko'nglim mujdakim Yusuf zamoning kelgusi", "Isosifat guftoringga olam gado, men ham gado", "Bo'lma Sultoniyga, ey Yusufi Kan'on mone" kabi misralar shoir g'azaliyotining badiiyligini oshiradi.

Shuningdek, Sultoniy o'z she'rlarida muammo san'atini mohirona qo'llaydi:

***Yarim ismim so'rsang, ey ozurda jon,  
Loladin birin olib quy boshiga bo'lgay ayon, –***

baytida “Oloh” so‘zini muammo yo‘li bilan chiqaradi. Baytdagi “bir” so‘zining abjad hisobidagi harfi “o” (Alif). Uni loladagi bir “o” ni olib boshiga qo‘yiladi va “Oloh” so‘zi kelib chiqadi. Boshqa bir baytda esa “Muhammad” payg‘ambar nomi yashirin:

***Boshimga keldi g‘amdin hajringda behad afvoj,  
Ey sho‘x, sandin o‘lmish hadsiz madadga muhtoj.***

Baytdagi “Muhtoj”ning “muh” iga “madadga” “mad” i qo‘yiladi va “Muhammad” so‘zi kelib chiqadi.

Shoirning “Muhammad Rahim” nomli muammosida muammo san‘atining yangi qoidasi ishga solinadi:

***Ta‘mil aylab yoshurdi ismini bu bayt aro,  
Ismi haqq‘a Mustaf o ismini qo‘sh bo‘lg‘ay ayon.***

Muammoning yechimi ikkinchi misrada. Tarodif qoidasiga ko‘ra, “haq” so‘zining sinonimlaridan biri “Rahim” so‘zi tanlab olinadi. “Mustaf o” so‘zining sinonimi “Muhammad” so‘zi olinib, tarodif qoidasi asosida birlashtiriladi va “Muhammad Rahim” so‘zi kelib chiqadi.

Shoir asarlaridagi muammo san‘atiga doir baytlar tahlil etilganda eski o‘zbek yozuvidagi abjad hisobi to‘g‘risida qisman ma‘lumot berilib, tahlil jarayonida ko‘rgazmali vositalardan foydalanish o‘rinlidir.

Sultoni y ijodida tabiatga, atrof-muhitga mehr, xalqning milliy bayramlarini ulug‘lash g‘oyalari ham o‘ziga xos o‘rin egallaydi. “Shod o‘lg‘il, ey shaydo ko‘ngilkim, mavsum Navro‘z erur” misrasi bilan boshlanuvchi Navro‘z haqidagi she‘r bunga misol bo‘la oladi.

She‘rda shoir Navro‘zni tasvirlash bilan birga shoh Feruzning obodonchilik yo‘lidagi xizmatlarini ham eslaydi. Shahar-u qishloqlarni obod qiladigan hukmdor bor ekan, har bir kunimiz yangi kundir, - deya ta‘kidlaydi:

***Shaxi jahon davronidin har bir kuni Navro‘z erur [21].***

Sultoni y ijodida ham Feruz davridagi boshqa shoirlarda bo‘lgani kabi Feruzga Payrav g‘azallar uchraydi. Shoir Feruzni ustoz sifatida ulug‘laydi:

***Ayo Sultoni y sandek kimki qilgay zarrai ta‘rif,  
Kel emdi aylagil bir lahza tinmayin qudratni tavsif.  
Etib joning fido qil dunyoi duning zulfini tavsif,  
Sango Feruz o‘lib baxt etding ul oy qandi labin tavsif [22-24].***

Bu yanglig‘ tab‘i nozik birla ash‘oringga sallamno. So‘zni ixcham, go‘zal va mazmundor qilib ifodalash, badiiy ifoda, maqsadni chiroyli iboralar bilan anglatishda Sultoni y mahorati tahsinga loyiqdir.

Demak, taraqqiyot va o‘zgarishlar davom etayotgan bugungi kunda yoshlarimizni komil inson qilib tarbiyalash maqsadida din va diniy qadriyatlarni, ma‘naviy merosimizning mohiyatini to‘g‘ri tushuntirishimiz davr talabidir [25].



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Laffasiy. "Tazkirai shuaro". Urganch. 1992.
2. Tabibiy. "Majmuatush-shuaro". Xiva. Toshbosma. 1908.
3. Bobojon Tarrox Xodim. "Xorazm navozandalari". Toshkent.
4. V. Abdullayev. "Saylanma". Adabiy-tanqidiy maqolalar. Toshkent. 1982.
5. Qobulov N., Mo'minova V., Haqqulov I. Avaz va uning adabiy muhiti – T.: Fan, 1987 – B. 25–30.
6. D. Raxim, Sh. Matrasul, N. Jumaxo'ja. "Feruz". Toshkent. 1995.
7. Ismoilova G. Feruz davri Xorazm adabiy muhiti. Filol.fanlari.nomz. dissert. T.: TAI, 1995. – B. 31–32.
8. Jumaxo'ja N. Feruz madaniyat va san'at homiysi. – T.: Fan, 1996. – B. 89. O'sha muallif. Feruz. // "Xalq so'zi". 1992-yil 29-yanvar.
9. Jumaxo'ja N. Adizova I. So'zdin baqoliroq yodgor yo'qdur – T.: O'zbekiston, 1995. – B. 150.
10. Khajieva I., Khujaniyazova G., Kenjaeva K., & Jumaniyozov F. (2020). Foreign language competenceformation of the future teacher of vocational education in the information and educational environment. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 360–365.
11. Iroda X., Feruza A., Khurshida K., & Umida B. (2020). The importance of spiritual values in the upbringing of the harmoniously developed person in teaching and learning process. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(5), 1496–1499.
12. Юсупов Д.Ф., Хажиева И.А., & Сапаев У. (2015). Активизация познавательной деятельности студентов с помощью компьютерных технологий при изучении гуманитарных дисциплин. *Молодой ученый*, (9), 1226–1229.
13. Adambaeva F., Khajiyeva I., & Klicheva N. (2020). Advantages of blended learning in english language teaching. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(5), 1425–1430.
14. Хажиева И.А., & Юсупов Ф. (2012). К проблеме воспитания образованного и интеллектуально развитого студента в современной социокультурной ситуации. *Илм сарчашмалари, УрДУ, Урганч*, (11), 89.
15. Rustambekovna A.F., & Adambayevna K.I. (2017). The Effectiveness of Applying Video Materials in Communicative Language Teaching. *Higher Education*.
16. Адамбаева Ф. Р., & Хажиева И. А. (2016). Some challenges of using the native language in the English Language classroom. *Молодой ученый*, (29-3), 2–4.
17. Юсупова М.У., Хажиева И.А., & Матъязова Н.С. (2015). Роль местного сообщества в развитии туризма. *Молодой ученый*, (9), 765–768.
18. Abdullayeva S., Khajiyeva I., & Matyazova N. (2020). Derivational categories of verbs in the aspect of interaction of the lexical, morphological and word-forming tiers. *Solid State Technology* 63(6), 92–95.
19. Khadjieva I.A. (2019). Development of spiritual and moral values of students on the basis of innovative technologies. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
20. Хажиева И.А., & Султанова Ф.А. (2017). Олий таълим муассасаларида талабаларни тарбиялаш ва ўқитишда инновацион технологияларнинг роли. *Молодой ученый*, (16-2), 34–37.
21. Кlicheva N.A., & Хажиева И.А. (2017). Connotational peculiarities of English and Uzbek zoomorphic phraseologisms. *Молодой ученый*, (16-2), 49–50.

22. Батирова Ф.К., & Хаджиева И.А. (2016). Значение инженерной психологии в развитие молодых кадров. Научная перспектива, (7), 41–42.

23. Khajiyeva I.A., & Adambaeva F. (2016). Some peculiarities of using ceft in foreign language teaching. Учёный XXI века, (3-2 (16)), 24–26.

24. Хажиева И.А., & Сапарбаев А.Ш. (2016). Ижтимоий-психологик тренинг самарали мулоқотнинг омили сифатида. Молодой учёный, 111.

25. Хажиева И.А., & Жуманиязова Г.Р. (2016). Оила – тарбиянинг биринчи мактаби. Молодой учёный, 109.

26. Хажиева И.А., & Юсупов Ф. (2014). О лично-ориентированной модели компьютерного обучения гуманитарных дисциплин. Молодой ученый, (6), 765–767.